



A COMPARATIVE ANALYSIS OF LINGUOCULTURAL MARKERS IN UZBEK AND ENGLISH MEDIA DISCOURSE

Dilrabo Alimjanovna Rakhmatullayeva

Senior teacher at Angren University
Tashkent, Uzbekistan

Laylo Rakhimovna Raupova

Scientific advisor, doctor of philology, professor at Renaissance Educational University
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: linguoculturology, media discourse, linguocultural markers, comparative analysis, cultural code, discourse studies.

Received: 05.12.25

Accepted: 06.12.25

Published: 07.12.25

Abstract: This article analyzes the manifestation of linguocultural markers in Uzbek and English media discourse and their role in reflecting intercultural differences. The findings indicate that English media discourse prioritizes individualism, analytical reasoning, and neutrality, whereas Uzbek media emphasizes collectivism, emotional expressiveness, and moral values. Metaphors, forms of address, evaluative lexis, and national symbols serve as indicators of underlying cultural codes. The study employs discourse analysis, semantic interpretation, and comparative methods to examine how linguistic forms convey national identity and worldview. The results demonstrate the inseparable interrelation between language and culture and how media discourse functions as a mirror of collective mentality.

O‘ZBEK VA INGLIZ MEDIA DISKURSIDA LINGVOMADANIY MARKERLARNING QIYOSIY TAHLILI

Dilrabo Alimjanovna Raxmatullayeva

Angren universiteti katta o‘qituvchisi
Tashkent, O‘zbekiston

Laylo Raximovna Raupova

ilmiy rahbar, f.f.d. professor
Renessans ta’lim universiteti
Tashkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit	soʻzlar:	Annotatsiya:
lingvomadaniyatshunoslik, media diskurs, lingvomadaniy markerlar, qiyosiy tahlil, madaniyat kodi, diskurs tahlili.		Ushbu maqolada oʻzbek va ingliz media diskursida lingvomadaniy markerlarning namoyon boʻlishi va ularning madaniyatlararo tafovutni ifodalashdagi oʻrni tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, ingliz media nutqida individualizm, neytrallik va analitik yondashuv ustuvor boʻlsa, oʻzbek media diskursida jamoaviylik, hissiylik va axloqiy qadriyatlar asosiy oʻrinni egallaydi. Matnlardagi metaforalar, murojaat shakllari, baholovchi leksika va milliy timsollar lingvomadaniy kodlarni ochib beradi. Maqolada tahlil usuli sifatida diskursiv, semantik va qiyosiy yondashuvlar qoʻllanilgan. Natijalar til va madaniyat oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlikni hamda media orqali milliy mentalitetning til vositasida ifodalanishini koʻrsatadi.

**СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫХ МАРКЕРОВ В
УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ МЕДИАДИСКУРСЕ**

Дилрабо Алимжановна Рахматуллаева

*Старший преподаватель Ангренского университета
Ташкент, Узбекистан*

Лайло Рахимовна Раупова

*Научный руководитель
д.ф.н., профессор Образовательного университета Ренессанс
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые	слова:	Аннотация:	В	статье
лингвокультурология, лингвокультурные сравнительный анализ, дискурсивный анализ.	медиадискурс, маркеры, культурный код,	рассматриваются особенности проявления лингвокультурных маркеров в узбекском и английском медиадискурсе, а также их роль в отражении культурных различий. Результаты анализа показывают, что английские СМИ характеризуются индивидуализмом, аналитичностью и нейтральным стилем, тогда как узбекские медиа ориентированы на коллективизм, эмоциональность и нравственные ценности. Использование метафор, форм обращения, оценочной лексики и национальных символов раскрывает культурные коды общества. Методологическую основу исследования составляют дискурсивный, семантический		

и сравнительный анализ. Итоги подтверждают неразрывную связь языка и культуры, а также то, что медиадискурс является отражением национального менталитета.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida media nafaqat axborot tarqatuvchi vosita, balki madaniy identifikatsiya va milliy ongni shakllantiruvchi kuchli ijtimoiy institut sifatida namoyon bo'lmoqda. Ommaviy axborot vositalari til orqali milliy qadriyatlar, mentalitet va axloqiy me'yorlarni aks ettiradi. Shu bois media diskursni lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikda muhim metodologik yo'nalishga aylanmoqda. Lingvomadaniyatshunoslik tildagi madaniy belgilar, qadriyatlar va milliy konseptlarning qanday namoyon bo'lishini o'rganadi. Media diskurs esa ana shu belgilarni ommaga yetkazuvchi va qayta talqin qiluvchi ijtimoiy maydondir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

O'zbek va ingliz media diskursida lingvomadaniy markerlarni qiyosiy tadqiq etish media lingvistika, diskurs tahlili va lingvomadaniyatshunoslikning kesishgan nuqtasida joylashgan ilmiy yo'nalish bo'lib, zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan turlicha metodologiyalar asosida o'rganib kelinmoqda.

Til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik g'oyasi XX asr oxiri va XXI asr boshlaridagi tadqiqotlarda markaziy o'rin egallagan. V. V. Vorobyov lingvomadaniyatshunoslikni madaniy mazmunning til birliklarida aks etish mexanizmini o'rganuvchi kompleks fan sifatida tariflab, har bir til o'ziga xos konseptual makonga ega ekanini ta'kidlaydi.[1] Bu yondashuvga ko'ra, muayyan xalqning dunyoqarashi, qadriyatlarga munosabati, axloq normalari til vositasida shakllanadi va uzatiladi. Shuning uchun media matnlarda til birliklarining ma'no qatlamida yashiringan madaniy konnotatsiyalarni tadqiq etish dolzarb ilmiy vazifadir.

E. I. Zinovyeva va E. E. Yurkov tomonidan taklif etilgan kognitiv-pragmaik yondashuv lingvomadaniy markerlarni nafaqat til strukturasi, balki nutq odatlari va diskurs amaliyoti orqali tahlil qilishning muhimligini asoslaydi. Mualliflar milliy mentalitet tilda yashirin semantik-assotsiativ tizimlar orqali namoyon bo'lishini, media esa bu tizimlarning ommaviy shaklda uzatilishida asosiy maydon ekanini qayd etadilar.[4]

G'arb tadqiqotchilari, jumladan C. Kramsch, media matnlarida madaniy kontekstning hal qiluvchi o'rin tutishini ta'kidlashadi. Uning fikricha, media tilining har bir elementi ijtimoiy voqelikni qayta konstruksiya qiladi va auditoriya ongida ma'lum madaniy tasavvurlarni shakllantiradi.[5] Demak, tilning tanlanishi — so'z, metafora, ohang, emotsional rang — faqat lingvistik vosita emas, balki madaniy pozitsiyaning ifodasidir.

A. Wierzbicka esa “kalit soʻzlar nazariyasi” orqali madaniyatni belgilovchi leksik birliklarning universalligiga shubha bildiradi va har bir tilning oʻziga xos madaniy konseptlar tizimiga ega ekanini isbotlaydi.[10] Bu yondashuv oʻzbek va ingliz media diskursini qiyoslashda ayniqsa muhim: masalan, “hayratu-hayajon”, “or-nomus”, “milliy birlik”, “freedom”, “privacy”, “individual choice” kabi konseptlar turli til-madaniy maydonlarda mutlaqo turlicha maʼnoga ega.

Dobroslonskaya T. G. media tilini alohida lingvistik tizim sifatida koʻrib, unda lingvomadaniy kodlarning qanday shakllanishini ilmiy asoslaydi. Media diskursning tezkorligi, ijtimoiy voqelikka taʼsiri va “ijtimoiy ong konstrukturi” sifatidagi funksiyasi lingvomadaniy markerlarning dinamik tabiatini ochib beradi.[3]

Koʻplab ingliz olimlari, jumladan N. Fairclough (critical discourse analysis maktabi), media tilidagi ideologik komponentni tahlil qilish zarurligini taʼkidlaydi.[9] Unga koʻra, tilni tanlash auditoriyaga ongli ravishda taʼsir qilish, ijtimoiy haqiqatni konstruksiya qilishning muhim vositasidir. Oʻzbek media muhitida esa koʻpincha jamiyatga xos qadriyatlar, kollektivlik, ijtimoiy birdamlik, anʼanaviylik, milliy gʻurur kabi markerlar ustuvor boʻlsa, ingliz tilidagi matnlarda individualizm, shaxs erkinligi, xolislikka urgʻu kuchliroq namoyon boʻladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada diskurs tahlili orqali ommaviy axborot vositalaridagi lingvomadaniy birliklarning kontekstual talqini, kommunikativ maqsadi va auditoriyaga taʼsir koʻrsatish mexanizmlari aniqlandi. Kontent-tahlil esa tanlangan materiallardagi ushbu markerlarning qoʻllanish chastotasi, mavzular boʻyicha taqsimlanishi va funksional xususiyatlarini oʻrganishga qaratildi. Qiyosiy tahlil oʻzbek va ingliz media diskurslarida madaniy tushunchalarning ifodalanishi, lisoniy vositalarning tanlanishi va pragmatik strategiyalardagi farqlarni solishtirish orqali ularning milliy-madaniy oʻziga xosliklarini yoritib berdi. Interpretativ tahlil orqali madaniy kodlar, milliy mentalitet, ijtimoiy qadriyatlar va kommunikativ anʼanalar bilan bogʻliq talqinlar tadqiq qilindi.

Tahlil va natijalar. Til nafaqat aloqa vositasi, balki madaniyatni kodlovchi tizim hamdir. Har bir xalqning tili oʻziga xos madaniy “kod”ni aks ettiradi.[8] Masalan, oʻzbek tilidagi “hamjihatlik”, “or-nomus”, “mehnatsevarlik” kabi tushunchalar xalq mentalitetini ifoda etsa, ingliz tilidagi “individualism”, “privacy”, “freedom” kabi soʻzlar Gʻarb madaniyatidagi shaxs markaziy qadriyat ekanini koʻrsatadi.

Dobroslonskaya taʼkidlashicha, media diskurs — bu axborot vositalarida shakllanadigan nutqiy faoliyat jarayoni boʻlib, u ijtimoiy voqealarni til orqali ifodalaydi, talqin qiladi va baholaydi. Ommaviy axborot vositalarining tili har doim muayyan madaniyatga mansub boʻlib, shu madaniyatning qadriyatlar tizimini aks ettiradi.[3]

Masalan, ingliz tilidagi “The voice of democracy”, “speaking up for your rights” kabi iboralar shaxs erkinligi va demokratik qadriyatlarni targʻib etsa, oʻzbek tilidagi “xalq ishonchi”,

“birlikda yengamiz”, “hamjihatlikda kuch” kabi ifodalar jamiyatning kollektivlik ruhini va ijtimoiy birdamlikni ta’kidlaydi. Bu tildagi farqlar ikki madaniyatning asosiy kommunikativ qadriyatlarini ochib beradi.

Globallashuv jarayoni media sohasida madaniyatlararo aloqalarni keskin kuchaytirdi. Ingliz tili dunyo axborot oqimlarida hukmron bo‘lib, ko‘pincha g‘arb madaniy narrativlarini global auditoriyalarga singdiradi. Lingvokulturologiya esa tilning globallashuvi madaniy xilma-xillikka qanday ta’sir etishini tahlil qilish imkonini beradi.[7]

Masalan, ingliz tilidagi challenge, innovation, success kabi so‘zlar faqat semantik ma’noni emas, balki G‘arb jamiyatining taraqqiyot, yangilik va individuallik haqidagi mafkuraviy konnotatsiyalarini ham olib yuradi. Mahalliy OAV ushbu terminlarni qabul qilganida, ular ko‘pincha o‘z madaniy kontekstida qayta talqin qilinadi yoki g‘arb paradigmasini takrorlaydi. Shu bois lingvokulturologik tahlil global media kommunikatsiyasida madaniy aralashuv, moslashuv va qarshilik jarayonlarini aniqlashga yordam beradi.[6]

Lingvomadaniy marker — bu muayyan xalqning madaniy qadriyatlari va dunyoqarashini ifodalovchi til birliklaridir. Quyidagi misollar o‘zbek va ingliz media tilida bunday markerlarning qanday aks etishini ko‘rsatadi:

Madaniy konsept	O‘zbek media misoli	Ingliz media misoli
Hamjihatlik	“Birgalikda biz yengamiz”, “Yagona xalq, yagona maqsad”	“Together we stand”, “Unity in diversity”
Ma’naviyat / axloq	“Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish dolzarb masala”	“Moral responsibility of citizens”
Mehnatsevarlik	“Halol mehnat – farovon hayot garovi”	“Work hard, dream big”
Vatanparvarlik	“Yurt tinchligi – xalq baxti”	“Proud to serve the nation”
Erkin fikr	“Ochiq muloqot va fikrlar xilma-xilligi taraqqiyot kaliti”	“Freedom of speech is the cornerstone of democracy”

Ushbu misollar shuni ko‘rsatadiki, ingliz media tili asosan individuallik, shaxs erkinligi va ijtimoiy mas’uliyatga urg‘u beradi, o‘zbek media diskursi esa ko‘proq hamjihatlik, ma’naviylik va vatanparvarlikka tayanadi.

Lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan, ushbu farqlar til va madaniyat o‘rtasidagi chuqur semantik bog‘liqlikni ko‘rsatadi. Vereshchagin va Kostomarov qayd etganidek, har bir til jamoasi o‘zining lingvomadaniy kodiga ega — bu qadriyatlar, ramzlar va kommunikativ me’yorlar tizimidir.[2] Ana shu kod madaniyat vakillari qanday fikrlashini va o‘z fikrini qanday ifoda etishini belgilaydi.

Ingliz media diskursi individualizm va ratsionalizm an'alariga asoslanadi: unda nutq tuzilishi aniqlik, aniq pozitsiya va shaxsiy fikr bildirishga yo'naltirilgan. Bu G'arb madaniyatining asosiy kommunikativ qadriyatlarini — shaxs erkinligi va tanlov mas'uliyatini aks ettiradi.[5]

O'zbek media diskursi esa kollektiv qadriyatlar va ma'naviy birdamlikka tayanadi. U nafaqat xabar yetkazadi, balki axloqiy motivatsiya va ijtimoiy uyg'unlikni shakllantiradi. "Hamjihatlik", "mehr-oqibat", "ma'naviyat" kabi konseptlar xalq ongida ijtimoiy birdamlikni mustahkamlaydi.

Media sarlavhalari — bu nafaqat axborotning qisqa shakli, balki jamiyatning madaniy ustuvorliklari, mentaliteti va qadriyatlar tizimini mujassam etuvchi lingvomadaniy birliklardir. Har bir jamiyat ommaviy axborot vositalarida voqealarni qanday nomlashini tanlayotganda o'z tarixiy an'alari, ideologik paradigmatlari va ijtimoiy qadriyatlarini aks ettiradi. Shu bois ingliz va o'zbek media sarlavhalaridagi farqlar lingvomadaniy tahlil uchun juda muhimdir.

Masalan: ingliz mediasi: "Prime Minister Vows to Boost Economy", "Teen Inventor Wins Global Award". Bu sarlavhalar individual tashabbus, faoliyat va muvaffaqiyatni ulug'laydi.

Bunga ko'ra G'arb madaniyatida, xususan AQSh va Buyuk Britaniyada, shaxs erkinligi, alohida tashabbus va individual muvaffaqiyat yuqori qadrlanadi. Bu qadriyatlar sarlavhalarda faol fe'llar ("vows", "wins"), agentlik bildiruvchi subyektlar ("Prime Minister", "Teen Inventor") orqali ifodalanadi. Sarlavhalarda wins, boost, inventor, global award kabi yutuqni ko'rsatuvchi birliklar ishlatiladi. Bu jamiyatda muvaffaqiyat shaxsiy mehnat natijasi sifatida ko'riladi. Ingliz sarlavhalari ko'pincha axborot yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, ortiqcha baholovchi leksika ishlatmaydi. Bu ingliz media an'alaridagi fakt-orientatsiya va obyektivlik talabiga mos keladi. "Vows", "Wins" kabi fe'llar voqeaning jarayonini ta'kidlab, shaxsning agentlik darajasini oshiradi — bu esa g'arb madaniyatidagi "active self" modeliga mos keladi.

O'zbek mediasi: "Yurtimiz taraqqiyoti uchun hamjihatlikda mehnat qilaylik", "Oila – millatning tayanchi". Bu shakllar jamoaviylik, hamkorlik va ma'naviy birlik qadriyatlarini ifodalaydi va shu sababli o'zbek media sarlavhalarida ko'pincha "biz" konsepti ustuvor bo'ladi. Bu o'zbek mentalitetidagi ijtimoiy birdamlik va jamoaviylik qadriyatlarini aks ettiradi.

O'zbek sarlavhalarida ko'pincha ma'naviy-axloqiy xususiyatga ega so'zlar ishlatiladi: mehnat qilaylik — motivatsion chaqiriq, tayanch — metaforik baho, taraqqiyot, ma'naviyat, birlik — ideologik yukli konseptlar

O'zbek sarlavhalari ko'pincha tavsiya, chaqiriq yoki ijtimoiy-axloqiy tamoyilni ifodalaydi. Bu Sharqona diskursga xos bo'lgan "o'rgatuvchi" kommunikativ modeldir.

Oila – millatning tayanchi — bu metafora orqali oila ijtimoiy barqarorlikning poydevori sifatida talqin qilinadi. Bu milliy mentalitetda oila institutining ustuvor o'rnini ko'rsatadi.

Xulosa. Shunday qilib, media diskurs til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqaning eng yorqin ifodasidir. Ommaviy axborot vositalari tili orqali madaniyatning asosiy qadriyatlari, tarixiy xotirasi va zamonaviy talqini shakllanadi. Lingvomadaniyatshunoslik esa ushbu jarayonni tahlil qilish, turli madaniyatlar nutqidagi umumiylik va farqlarni aniqlash imkonini beradi.

O'zbek va ingliz media misollarining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, til madaniyatning nafaqat ifodasi, balki uni shakllantiruvchi kuchdir. Shuning uchun media lingvomadaniy tadqiqotlari zamonaviy tilshunoslik va madaniyatshunoslikning eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Воробьёв, В. В. (1997). Лингвокультурология: теория и методы. Москва: РУДН.
2. Верецагин, Е. М., & Костомаров, В. Г. (1990). Язык и культура: Лингвострановедческие исследования в преподавании русского языка как иностранного. Москва: Русский язык.
3. Добросклонская, Т. Г. (2008). Медиалингвистика: теория языка массовой коммуникации. Москва: Флинта Наука.
4. Зиновьева Е.И. Юрков Е. Е. (2009) Лингвокультурология: теория и практика – Санкт-Петербург: издательский дом «MIRS», 291 с.
5. Kramsch, C. (1993). Context and culture in language teaching. Oxford: Oxford University Press.
6. Raupova, Laylo & Khursanov, Nurislom & Khursanova, Laylo & Polatova, Sarvinoz. (2023). Development of world modern linguistics and discourse interpretation in it. E3S Web of Conferences. 413.
7. Raupova, Laylo & Khursanova, Laylo. (2024). Modern Trends in Teaching English to ICT Students: Methods and Analysis. MMIT Proceedings. 243-245.
8. Rakhmatullaeva Dilrabo Alimjanovna Raupova Laylo Rahimovna. (2025). Cross-linguistic representation of the emotion of surprise in english and uzbek film scripts. Zenodo.
9. Raxmatullayeva D.A. (2025) mediamatnning lingvistik va kommunikativ mohiyati., "filologik tadqiqotlar taraqqiyoti va ta'lim muammolari" xalqaro konferensiya to'plam, Toshkent
10. Wierzbicka, A. (1997). Understanding cultures through their key words. New York: Oxford University Press.